

SHAXSNING KAMOL TOPISHIDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI

Tojiboyeva Muqaddasxon Raxmatjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxs va uning xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shaxsning kamol topishida hamda rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyos ekanligi keng yoritilgan. Ta'lim va tarbiyaning mohiyatlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, shaxsning kamol topishi va rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxs, ta'lim, tarbiya, stixiyali, ong, biologik omil, estetika, ijtimoiy.*

Shaxs- psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi hisoblanadi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Shaxsning rivojlanishida hamda kamol topishida va rivojlanishida biologik omillar, ijtimoiy omillar, ta'lim va tarbiya, bola shaxsining faolligi va boshqa omillar muhim rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiya insonning shakllanishida yetakchi rolni o'ynaydi, ta'lim-tarbiya natijasida irsiyat va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan o'qish, yozish, mehnat, malaka va ko'nikmalarini egallanishi, hatto tug'ma kamchiliklar ham ma'lum tomonga o'zgartirilishi (ko'zi ojiz, kar, soqov bolalarni o'qitish), muhit ta'sirida yuzaga kelgan salbiy kamchiliklarni ham tugatish mumkin. Stixiyali jarayon o'zaro uyushmagan jarayondir.

Tarbiya- muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib topdirish jarayoni hisoblanadi. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: " Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot- yo falokat, yo saodat- yo falokat masalasidir ".

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun xizmat qiladigan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Shuningdek, tarbiya- bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan uning barcha shakllarida-bilim, his-hayajon, estetika, odo-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga xos jihatlari, imkoniyatlari hamda layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Tarbiya jamiyatdagi

hodisa sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodning jamiyat hayotida, turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, ijodi va ma'naviyligida ishtirok etishi murakkab ijtimoiy-tarixiy jarayondir.

Shaxning rivojlanishida va uning kamol topishida tarbiyaning o'rne beqiyos. Tarbiya jarayonida shaxsning ongigina emas, balki his-tuyg'ularini o'stirib borish, jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilinishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan hamda muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki va aloqa munosabatlarini aks ettiradi.

Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda Qur'oni Karim hamda Hadisi Shariflardan foydalanish juda muhim. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smirlarning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim.

Ta'lim insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni shaxsning ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarini o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratishdan iborat.

Ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Ta'limga ikki tomonlama aloqa (ta'lim olish va ta'lim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lim jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik obyektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq shaxsni ta'lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillarning ta'siri tufayli qiyin kechadi. Ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi.

Pedagogika sohasida shaxsning kamolotga yetishishi murakkab va ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Shaxsning kamolga yetishishida irsiyat, muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va shaxsning mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi va kamol topishidagi o'rne nihoyatda beqiyosdir.

Ta'lim-tarbiya insonning shakllanishida yetakchi rolni o'ynaydi, ta'lim-tarbiya natijasida irsiyat va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan o'qish, yozish, mehnat, malaka va ko'nikmalar egallanishi, hatto tug'ma kamchiliklar ham ma'lum tomonga o'zgartirilishi (kar, ko'r, soqovlarni o'qitish), muhit ta'sirida yuzaga keladigan salbiy kamchiliklarni ham tugatish mumkin.

Shaxsning rivojlanishida "faoliyat", "faollik" tushunchalarining ham o'rne beqiyos. Buyuk insonlar o'z sohalarida yuksaklikka erishish uchun tinmay mehnat qilganlar. Inson o'z intilishi va faolligi bilan yuksak cho'qqilarga, ko'p narsalarga

erishish mumkin. Qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun ham o'z ustida ishlash kerak.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning kamol topishida ko'plab omillar muhim rol o'ynaydi. Shu omillar ichida ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyos. Pedagogika sohasida shaxsning kamol topishi masalasiga alohida e'tibor beriladi. Bu e'tibor pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiya berishning to'g'ri va samarali tashkil etilishida o'z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.X.Xodjayev " Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti ". Toshkent-2017.
2. R.M.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". Toshkent- 2010.
3. M.X.Toxtaxodjayeva, S.Nishonova, J.Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S.Madiyorova, A.Qoldibekova, N.Nishonova, N.Sayidahmedov. "Pedagogika" (Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-qism.Pedagogika nazariyasi). Toshkent-2010.
4. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. "Pedagogika nazariyasi". Toshkent-2008.
5. Umidjon o'g'li, T. J. (2022). TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KOMPONENTLAR VA VOSITALARNING AHAMIYATI. Scientific Impulse, 1(9), 1077-1080.
6. Tojiboyev, J.U.O.G.L (2022).TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Academic research in educational sciences, 3(1), 585-594.
7. Tojiboyeva, M.(2023). ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOT METODLARINING PEDAGOGIKA SOHASIDA TUTGAN O'RNI. Наука и инновация, 1(6), 24-26.
8. Muqaddasxon, T.(2023). O'ZBEKISTONDA ILM-FAN RIVOJLANISHI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(4), 223-225.